

Sintaktik tizimda markaz va periferiya o'rtasida doimiy dinamik munosabat mavjud. Nutq jarayonida periferik birliklar ba'zan kommunikativ markazga aylanishi mumkin. Ayniqsa, dialogik va badiiy matnlarda bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi:

- Qayerga?
- Universitetga.

Bu misolda to'liqsiz gap asosiy axborotni tashuvchi birlik sifatida namoyon bo'lmoqda. Demak, periferik birliklar nutqiy vaziyatda markaziy ahamiyat kasb etishi mumkin.

#### **Xulosa.**

Aytish mumkinki, periferik sintaktik birliklar — to'liqsiz gaplar, egasiz gaplar va elliptik konstruksiyalar — til tizimining muhim qatlamini tashkil etadi. Ular nutqiy vaziyatda mazmunni ixcham, ta'sirchan va kontekstga mos tarzda ifodalash imkonini beradi. Shu bois, sintaksisni faqat strukturaviy birliklar majmuasi sifatida emas, balki nutqiy va kommunikativ jarayon bilan uzviy bog'liq dinamik tizim sifatida o'rganish zarur.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek tili sintaksisi markaz va periferiya o'rtasidagi dinamik munosabat asosida faoliyat yuritadi. Markaziy birliklar grammatik me'yorni ifodalasa, periferik birliklar nutqning kommunikativ va pragmatik ehtiyojlarini ta'minlaydi. Funktsional-maydon yondashuvi sintaktik tizimni yaxlit va harakatchan hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Бондарко А.В. (ред.) Проблемы функциональной грамматики: Полевые структуры. –СПб.: Наука, 2005. – 480 с.
2. Щур Г.С. Теории поля в лингвистике. – М.: Наука, 1974.– 253 с.
3. Porzig W. Wesenhafte Bedeutungsbeziehungen. – Btitrage zur Geschichte der deutsche Sprache und Literatur. – 1934. S. 58. 70–97.  
<https://ru.wikipedia.org/wiki/>.
4. Comrie, B. (1986). Tense. Cambridge: Cambridge University Press.
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: Akademnashr, 2008.
6. Mahmudov N. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – Toshkent: Fan, 2010.
7. Расулова А. Ўзбек тилининг шарт ва тўсиқсизлик майдони. Монография. Фарғона – 2020
8. Расулова А. Тил сатҳида майдонлараро боғланиш. “Ўзбек тили ва адабиёти”. – Тошкент, №2 , 2021. – Б. 122-125.

---

**Polvonova Bashoratxon Mirobijnovna** [polvonovabashoratxon@gmail.com](mailto:polvonovabashoratxon@gmail.com)

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b., dotsent

Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti o'qituvchisi

<https://zenodo.org/records/18728974>

**Annotatsiya:** Maqolada ayollar nutqining sotsiopsixolingvistik xususiyatlarini aniqlash, ularning lingvistik, psixologik va ijtimoiy funktsiya jihatlarini tizimli tahlil qilish, ayol obrazining nutq modeli orqali Sharq poetikasidagi tarixiy-gender paradigmasini yoritish.

**Kalit soʻzlar:** psixolingvistika, gender lingvistika, sotsiolingvistik tadqiq, patriarxal dunyoqarash obyekt, predmet, freym, individ, kommunikatsiya, nutq subyekt, nutq obyekt, motiv.

## ЗАПАДНАЯ И ВОСТОЧНАЯ ПАРАДИГМЫ В ГЕНДЕРНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ

**Аннотация:** Цель статьи — выявить социально-психолингвистические особенности женской речи, систематически проанализировать их лингвистические, психологические и социально-функциональные аспекты, а также осветить историко-гендерную парадигму в восточной поэтике через речевую модель женского образа.

**Ключевые слова:** психолингвистика, гендерная лингвистика, социолингвистические исследования, объект патриархального мировоззрения, субъект, рамка, индивид, коммуникация, субъект речи, объект речи, мотив.

## WESTERN AND EASTERN PARADIGMS IN GENDER LINGUISTICS

**Abstract:** The article aims to identify the sociopsycholinguistic features of women's speech, systematically analyze their linguistic, psychological and social functional aspects, and illuminate the historical-gender paradigm in Eastern poetics through the speech model of the female image.

**Keywords:** psycholinguistics, gender linguistics, sociolinguistic research, patriarchal worldview object, subject, frame, individual, communication, speech subject, speech object, motif.

### 1. Introduction

Mumtoz adabiyot va tilshunoslikning kesishgan nuqtalarida joylashgan ayollar nutqining sotsiopsixolingvistik tahlili oʻzbek filologiyasi uchun nisbatan yangi va istiqbolli ilmiy yoʻnalishlardan biridir. Ayniqsa, Alisher Navoiyning “Xamsa”sidagi ayol obrazlari va ularning nutqiy modeli oʻrta asr Sharq madaniyati, jamiyati, gender qarashlari, ijtimoiy-siyosiy tafakkuri haqida muhim maʼlumotlarni beradi.

Mumtoz poetikada ayolning oʻrni, koʻpincha, ramziy, idealistik va axloqiy mezon sifatida eʼtirof etilgan boʻlsa-da, Navoiy ayollar nutqini **faol ijtimoiy subyekt, mantiqiy qaror qabul qiluvchi, psixologik jihatdan yetuk** obraz sifatida tasvirlaydi. Bunday yondashuv Sharq mumtoz adabiyotida gender lingvistikasi tarixi va ijtimoiy dinamikaning chuqur qatlamlarini oʻrganishda alohida ahamiyatga ega. Sharq adabiyotidagi ayol obrazi, uning nutq modeli, ijtimoiy roli zamonaviy metodlar bilan qayta oʻrganilmoqda.

### 2. Methods

Gender lingvistika – til tizimi va nutq amaliyotida jins (gender) omilining namoyon boʻlishini oʻrganuvchi ilmiy yoʻnalish boʻlib, u sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, madaniyatshunoslik va gender tadqiqotlari bilan

uzviy bog‘liq. Gender lingvistika nafaqat “ayollar tili” yoki “erkaklar tili”ni tadqiq etish bilan cheklanmay, balki **jamiyatdagi gender rollar, kuch munosabatlari, stereotiplar va madaniy kodlarning tildagi aksini** o‘rganadi.

Gender lingvistikasining G‘arb paradigmasidagi birinchi bosqichi feministik lingvistika davri deb yuritiladi. Bu davrda:

- til ayolni kamsituvchi, uning ijtimoiy mavqeini past ko‘rsatuvchi vosita sifatida tanqid qilindi;
- til birliklarida (masalan, **man–mankind**, kasb nomlarining erkak jinsga “bog‘lanishi”) patriarxal dunyoqarash aks etgani ta’kidlandi;
- grammatik jins tizimi (“he/she” oppozitsiyasi, kasb nomlari, murojaat shakllari) gender tengsizlikning lingvistik ko‘rinishi sifatida talqin qilindi.

Bu yondashuvda asosan: ayolning til tizimidagi ko‘rinishi, erkak markazli (androtsentrik) nomlash usullari, ayol obrazining kamsituvchi metaforik talqinlari tahlil qilindi. Masalan, “Kamchilik” (deficit), “hukmronlik” (dominance) va “farq” (difference) modellari

Keyingi bosqichda G‘arb gender lingvistikasida uchta asosiy nazariy model shakllandi:

1. **“Kamchilik modeli”** – ayollar tili ijtimoiy jihatdan “standart” hisoblangan erkaklar tiliga nisbatan sustroq, noaniqroq, kamroq “prestijli” deb qaraldi. Ayollar ko‘proq yumshatuvchilar, ehtiyotkor ifodalar, savol-ohanglardan foydalanishi shunga misol sifatida talqin qilindi.
2. **“Hukmronlik modeli”** – til orqali erkaklar jamiyatda ustun mavqeini mustahkamlashi, ayollar esa ko‘proq passiv rolga “turtib qo‘yilishi” ta’kidlandi. Muloqotda erkaklarning so‘z bo‘lishni tez-tez bo‘lib yuborishi, ayolga gap bermasligi, uning fikrini “qoplab ketishi” gender hukmronlikning lingvistik ko‘rinishi sifatida izohlandi.
3. **“Farq modeli”** – ayol va erkaklar tili “ikkita madaniyat” mahsuli sifatida qaraldi. Erkaklar ko‘proq **statusga yo‘naltirilgan** muloqotni, ayollar esa **munosabat va yaqinlikka yo‘naltirilgan** muloqotni afzal ko‘radi, degan fikr ilgari surildi. Bu yondashuv gender farqlarni nuqson emas, balki turlicha kommunikativ strategiya sifatida qabul qiladi.

### 3. Results

XX asr oxiri – XXI asr boshlarida gender lingvistika “ayollar tili” va “erkaklar tili” degan **qattiq qarama-qarshilikni nisbiylashtirdi**. Bunda genderni biologik emas, balki **ijtimoiy-konstruktiv hodisa**, ya’ni jamiyat tomonidan “quriladigan” kategoriya sifatida talqin qildi. Shuningdek, nutqdagi gender xususiyatlarini **diskursiv amaliyot** sifatida o‘rgana boshladi. Bu bosqichda ayol ham, erkak ham muayyan kommunikativ vaziyatda turlicha gender rolini “ijro etishi” mumkin, ya’ni gender nutqiy xulq qat’iy biologik belgi bilan emas, balki **sotsial rol, mavqe, kontekst** bilan belgilanadi.

**Zamonaviy G‘arb gender lingvistikasining xususiyatlari** asosan quyidagilarga tayanadi:

- korpus lingvistika asosida gender farqlarini statistik o‘rganish;
- mediada, siyosiy nutqda, reklamada gender stereotiplarini fosh etish;
- raqamli muloqot (ijtimoiy tarmoqlar, bloglar, chatlar)da gender kommunikatsiyasini o‘rganish;
- gender, etniklik, sinf, yosh kabi omillarning **kesishganligi** (intersectionality)ni hisobga olish.

### 4. Discussion

Bu yondashuvlar gender lingvistikasini kuchli nazariy va metodologik bazaga ega

mustaqil yoʻnalishga aylantirdi. Sharqda gender lingvistikasining shakllanishi esa anʻanaviy va zamonaviy koʻrinishlar bilan ifodalanadi. Sharqda “gender lingvistika” atamasi Gʻarbdagidek XX asr oxiri – XXI asr boshlarida qoʻllanila boshlagan boʻlsa-da, **ayol va erkak nutqi, ularning jamiyatdagi nutqiy roli** masalalari ancha qadimdan turli shakllarda mavjud boʻlgan. Anʻanaviy Sharq – adabiyot va axloqiy-nazariy manbalarda Sharq tafakkurida ayol – nafosat, iffatiy poklik, vafodorlik, mehr-shafqat timsoli; erkak – himoya, davlat, aqldan koʻproq masʼuliyat egasi sifatida talqin qilingan sifatida namoyon boʻladi. Bu yondashuvlar: tasavvufiy manbalar, adabiy asarlar, axloqiy risolalar, pandnomalarda keng aks etgan. Bu matnlarda ayolning nutqi:

- koʻproq **axloqiy-estetik mezon** sifatida;
- “toʻgʻri, odobli, halim, nazokatli nutq” ideali sifatida;
- uyat, hayo, iffat, sadoqatga mos **nutqiy xulq** orqali ifodalangan.

Ammo bu davrlarda **ilmiy termin sifatida “gender lingvistika” yoʻq**, faqat mazmuniy jihatdan genderga oid tasavvurlar mavjud edi.

Mumtoz poeziyada ayol nutqining poetik modeli Sharq mumtoz adabiyotida, jumladan, Navoiy, Nizomiy, Jomiy, Dehlaviy va boshqalarda quyidagicha ifodaga ega:

- ayol obrazining nutqi **poetik strukturada** juda muhim oʻrin egallaydi;
- ayolning soʻzi koʻpincha “haq soʻzi”, “toza niyat”, “muhabbatni pok ifoda etuvchi” nutq sifatida yuksak baholanadi;
- ayol nutqi orqali jamiyatdagi adolat, sadoqat, insoniylik, rahm-shafqat kabi qadriyatlar ifodalanadi.

Bu holat shuni koʻrsatadiki, Sharq anʻanaviy adabiyotida ayol tili **faqat hissiyotga berilgan**, “aqldan yiroq” emas, aksincha **maʼrifat va donolik egasi** boʻlgan maʼnaviy subʼekt sifatida talqin etilgan. Biroq bu talqin koʻpincha **badiiy-estetik** va **axloqiy-nazariy** shaklda boʻlib, alohida lingvistik konsepsiya darajasiga koʻtarilmagan. Zamonaviy Sharq va Markaziy Osiyoda gender lingvistikasining shakllanishi XX asr oxiri – XXI asr boshlarida oʻzbek, turk, fors, arab tilshunosligida **gender, ayollar tili, ijtimoiy rol va nutq** mavzusiga bagʻishlangan tadqiqotlar paydo boʻldi, til va jamiyat oʻzaro taʼsirida ayolning **kommunikativ modeli**, oiladagi, ish joyidagi, siyosiy hayotdagi nutqiy roli oʻrganila boshlandi, shuningdek, mumtoz matnlardagi ayol obrazini zamonaviy gender yondashuvlar asosida qayta talqin qilish tajribalari paydo boʻldi. Sharq paradigmida gender lingvistika koʻproq **madaniyat va maʼnaviyat bilan bogʻliq**, ayolning nutqiy xulqi **axloqiy mezon** bilan baholanadi, til va nutq **milliy mentalitet** bilan birga oʻrganiladi.

## 5. Conclusion

Umuman olganda, Gʻarb va Sharq paradigmalari: farqlar va mushtarak jihatlar mavjud. Gender lingvistikasining Gʻarb va Sharq paradigmalari oʻrtasida bir qator **muvofiglik** va **nomuvofigliklar** mavjud. Farqli jihatlar quyidagilardan iborat:

- **Maqsad nuqtayi nazaridan:**
  - Gʻarbda: til orqali gender tengsizlikni ochish, tanqid qilish, isloh qilish maqsadi kuchli.
  - Sharqda: ayol nutqini maʼnaviy qadriyatlar, odob-axloq, goʻzallik mezoni bilan bogʻlash ustuvor.
- **Metodologiya nuqtayi nazaridan:**
  - Gʻarb paradigmida statistik, eksperimental, korpus, diskurs tahlil usullari koʻp qoʻllanadi.

- Sharqda ko‘proq filologik, manbashunoslik, adabiy-tarixiy, etik-estetik tahlil ustun.
- **Tilga yondashuvda:**
  - G‘arb: til – kuch munosabatlari maydoni, gender tengsizligining aks etgan ko‘zgusi.
  - Sharq: til – ma’naviy kamolot, axloqiy tartib, adabiy go‘zallik maydoni.

Mushtarak jihatlar ikkala paradigmadada ham:

- ayol nutqining o‘ziga xos xususiyatlari borligi e’tirof etiladi;
- nutq orqali ayolning **ijtimoiy roli, psixologik qiyofasi, madaniy mavqei** aks etishi tan olinadi;
- “ayol tili” tushunchasi bir tomonlama emas, balki **murakkab, ko‘p qatlamli** hodisa sifatida talqin qilinadi.

Bugungi kunda ilm-fan rivoji tufayli G‘arb metodologiyasining empirik-korpus yondashuvlari Sharqning manbashunoslik, adabiyotshunoslik tajribasi bilan integratsiyalashmoqda.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy, A. Xamsa. – Toshkent: Fan, 1991.
2. Navoiy, A. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1982.
3. Bertels, E. Navoiyning ijodiy merosi. – Moskva: Nauka, 1965.
4. Sirojiddinov, S. Navoiyning badiiy tafakkuri. – Toshkent: Akademya, 2014.
5. Labov, W. Sociolinguistic Patterns. – Pennsylvania, 1972.
6. Trudgill, P. Sociolinguistics. – Penguin, 1995.
7. Mirzaev, T. Mumtoz poeziya talqini. – Toshkent, 2003.
8. Karimov, H. She’riyat estetikasining asoslari. – Toshkent, 2011.
9. Yo‘ldoshev, Q. Badiiy matn tahlili. – Toshkent: Fan, 2010.
10. Quronov, D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent, 2010.
11. Ziyonet.net

---

Джагаспанян Рафик Николаевич самостоятельный соискатель Ферганского государственного университета [raphael.nadal@mail.ru](mailto:raphael.nadal@mail.ru) ORCID id- 0009-0006-0814-2734



---

## СОЦИАЛЬНАЯ ЭТИКА И ОБРАЗ НАРОДНОГО ГЕРОЯ: ЧИТАТЕЛЬСКИЕ СМЫСЛЫ В РОМАНАХ «Я ПРИШЁЛ ДАТЬ ВАМ ВОЛЮ» И «ЗОЛОТАЯ ГОЛОВА МСТИТЕЛЯ»

<https://zenodo.org/records/18728982>

**Аннотация:** В современном литературоведении наблюдается значительный дефицит комплексных сравнительных исследований, посвящённых механизмам формирования образа народного героя в произведениях различных национальных литературных традиций. Романы, обращаясь к теме народного восстания и этики сопротивления угнетению, порождают широкий спектр читательских